

e-ISSN 3060-5059

DOI: 10.67227



IJTIMOYIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNAL

Scientific and Innovative Research in
Social and Humanitarian Studies

Vol. 3 • Issue 7

2026



Founded in 2024



publishscience.uz



publish_science_journal@mail.ru



PEER REVIEWED • OPEN ACCESS

YOSHLAR SIYOSATIDA MANFAAT MUVOZANATINI TA'MINLOVCHI KONSEPTUAL MODEL VA AMALIY TAVSIYALAR

Maqsud N. Kenjayev

Toshkent kimyo-texnologiya instituti, tayanch doktorant.

e-mail: kenjayevmaqsud06@gmail.com ORCID: <https://orcid.org/0009-0000-4438-3339>

Annotatsiya.

Mazkur maqolada yoshlar siyosatida manfaatlar muvozanatini ta'minlashning nazariy-metodologik asoslari hamda uni amaliyotga tatbiq etishga xizmat qiluvchi konseptual model ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Ish davomida tizimli tahlil, metodidan foydalanilib, yoshlar manfaatlarini muvozanatlashtirishning zamonaviy yondashuvlari o'rganildi. Natijada manfaatlar muvozanatini ta'minlovchi konseptual modelning aksiologik, normativ-huquqiy, institutsional, kommunikativ-deliberativ, iqtisodiy-resurs, madaniy-ma'rifiy hamda axborot-raqamli tarkibiy qismlari asoslab berildi. Shuningdek, modelning amal qilish tamoyillari – adolat, inklyuzivlik, shaffoflik, subsidiarlik, dialog va refleksivlik – hamda manfaatlarni aniqlash, muvozanatlashtirish, konfliktlarni boshqarish va monitoring mexanizmlari ilmiy asosda yoritildi. Yangi O'zbekiston sharoitida konseptual modelni davlat siyosati, mahalliy boshqaruv, ta'lim, iqtisodiyot, fuqarolik jamiyati va raqamli transformatsiya sohalarida qo'llash bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi. Yoshlar manfaatlari muvozanatini ta'minlashni barqaror ijtimoiy taraqqiyot, samarali davlat boshqaruvi va fuqarolik jamiyatini rivojlantirishning muhim omillaridan biri sifatida asoslaydi.

Kalit so'zlar: yoshlar siyosati, manfaatlar muvozanati, konseptual model, Yangi O'zbekiston, davlat boshqaruvi, inklyuzivlik, adolat, subsidiarlik, dialog, refleksivlik, fuqarolik jamiyati, raqamli transformatsiya, yoshlar manfaatlari, siyosiy ishtirok, monitoring, barqaror rivojlanish.

КОНЦЕПТУАЛЬНАЯ МОДЕЛЬ И ПРАКТИЧЕСКИЕ РЕКОМЕНДАЦИИ ПО ОБЕСПЕЧЕНИЮ БАЛАНСА ИНТЕРЕСОВ В МОЛОДЕЖНОЙ ПОЛИТИКЕ

Максуд Н. Кенжаев

Ташкентский химико-технологический институт, базовый докторант.

Аннотация.

В статье рассматриваются теоретико-методологические основы обеспечения баланса интересов в молодежной политике, а также научно обосновывается концептуальная модель, предназначенная для ее практической реализации. В ходе исследования использован системный анализ, позволивший изучить современные подходы к обеспечению баланса интересов молодежи. В результате разработана концептуальная модель, включающая аксиологический, нормативно-правовой, институциональный, коммуникативно-делиберативный, экономико-ресурсный, культурно-просветительский и информационно-цифровой компоненты. Кроме того, научно раскрыты основные принципы функционирования модели — справедливость, инклюзивность, прозрачность, subsidiarность, диалог и рефлексивность, а также механизмы выявления интересов, их согласования, управления конфликтами и мониторинга. Предложены практические рекомендации по внедрению концептуальной модели в условиях Нового Узбекистана в сферах государственной политики, местного управления, образования, экономики, гражданского общества и цифровой трансформации. Обосновано, что обеспечение баланса интересов молодежи является одним из ключевых факторов устойчивого общественного развития, эффективного государственного управления и укрепления институтов гражданского общества.

Ключевые слова: молодежная политика, баланс интересов, концептуальная модель, Новый Узбекистан, государственное управление, инклюзивность, справедливость, subsidiarность, диалог, рефлексивность, гражданское общество, цифровая трансформация, интересы молодежи, политическое участие, мониторинг, устойчивое развитие.

A CONCEPTUAL MODEL AND PRACTICAL RECOMMENDATIONS FOR ENSURING THE BALANCE OF INTERESTS IN YOUTH POLICY

Tarix, Falsafa, Sotsiologiya, Siyosat

Abstract.

This article examines the theoretical and methodological foundations for ensuring a balance of interests in youth policy and scientifically substantiates a conceptual model designed for its practical implementation. The study employs a systems analysis approach to explore contemporary strategies for balancing the interests of young people. As a result, a conceptual model is proposed, comprising axiological, legal-regulatory, institutional, communicative-deliberative, economic-resource, cultural-educational, and information-digital components. The research also identifies the key principles underlying the model, including justice, inclusiveness, transparency, subsidiarity, dialogue, and reflexivity, together with mechanisms for identifying interests, balancing competing priorities, managing conflicts, and monitoring implementation. Practical recommendations are developed for applying the conceptual model in the context of New Uzbekistan across public policy, local governance, education, the economy, civil society, and digital transformation. The study concludes that ensuring a balance of youth interests is a crucial prerequisite for sustainable social development, effective public governance, and the advancement of civil society.

Keywords: youth policy, balance of interests, conceptual model, New Uzbekistan, public governance, inclusiveness, justice, subsidiarity, dialogue, reflexivity, civil society, digital transformation, youth interests, political participation, monitoring, sustainable development.

Kirish. XXI asrda yoshlar masalasi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. Globallashuv, raqamli transformatsiya, demografik o'zgarishlar va ijtimoiy munosabatlarning murakkablashuvi yoshlarning manfaatlarini, ehtiyojlari va qadriyatlar tizimiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Ayniqsa, islohotlar jadallashayotgan sharoitda yoshlarning manfaatlarini to'g'ri anglash, ularni davlat va jamiyat manfaatlarini bilan uyg'unlashtirish hamda turli ijtimoiy guruhlar o'rtasida manfaatlar muvozanatini ta'minlash barqaror taraqqiyotning muhim shartlaridan biri hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, yoshlar siyosatida manfaatlar muvozanatini ta'minlash masalasi nafaqat amaliy, balki dolzarb ilmiy muammo sifatida ham alohida ahamiyat kasb etmoqda. Mazkur masala demokratik boshqaruv tamoyillarini takomillashtirish, fuqarolik jamiyatini rivojlantirish hamda yoshlarning siyosiy va ijtimoiy faolligini oshirish bilan chambarchas bog'liq.

O'zbekiston Respublikasida ham so'nggi yillarda yoshlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularning huquq va manfaatlarini himoya qilish hamda davlat boshqaruvida faol ishtirokini ta'minlashga qaratilgan keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Biroq yoshlar manfaatlarini ichki jihatdan turlicha bo'lib, ularning yoshi, yashash hududi, ta'lim darajasi, kasbiy faoliyati, iqtisodiy imkoniyatlari va ijtimoiy mavqeiga qarab sezilarli farqlanishi kuzatiladi. Shu sababli yoshlarni yagona ijtimoiy qatlam sifatida baholash ilmiy jihatdan yetarli emas. Aksincha, manfaatlarning xilma-xilligini hisobga olgan holda ularni muvozanatlashtirish mexanizmlarini ishlab chiqish zarurati yuzaga kelmoqda.

Mazkur muammoning ilmiy mohiyati shundan iboratki, manfaatlarning **xilma-xilligi** va ularning doimiy o'zgarib borishi o'z-o'zidan muvozanatni ta'minlamaydi. Aksincha, turli manfaatlar o'rtasida samarali institutsional, kommunikativ va huquqiy mexanizmlar mavjud bo'lmagan taqdirda ular ijtimoiy ziddiyatlarning kuchayishiga sabab bo'lishi mumkin. Shu bois zamonaviy yoshlar siyosatining asosiy vazifalaridan biri manfaatlarni bir xillikka keltirish emas, balki ularning qonuniy, ochiq va dialogga asoslangan uyg'unligini ta'minlashdan iboratdir.

Mazkur maqolaning asosiy maqsadi yoshlar siyosatida manfaatlar muvozanatini ta'minlashning nazariy asoslarini tahlil qilish hamda zamonaviy boshqaruv tamoyillariga mos konseptual yondashuvni ishlab chiqishdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilandi: manfaatlar muvozanati tushunchasining nazariy mazmunini ochib berish; yoshlar manfaatlarining o'ziga xos xususiyatlarini tahlil qilish; manfaatlar muvozanatini ta'minlashning metodologik asoslarini aniqlash hamda mazkur jarayonni baholashda qo'llaniladigan ilmiy yondashuvlarni tizimlashtirish.

Mavzuning ilmiy yangiligi shundaki, unda yoshlar manfaatlarini muvozanati faqat ijtimoiy himoya yoki davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash vositasi sifatida emas, balki turli manfaatdor subyektlar o'rtasidagi dinamik va refleksiv muvozanatni ta'minlovchi kompleks ijtimoiy-siyosiy tizim sifatida talqin qilinadi. Shuningdek, manfaatlar muvozanati yoshlar siyosatining alohida elementi emas, balki uning barcha institutsional, iqtisodiy, huquqiy va kommunikativ yo'nalishlarini birlashtiruvchi metodologik tamoyil sifatida asoslanadi.

Mavzuni yoritish davomida **tizimli tahlil metodidan** foydalanildi. Bundan tashqari, yoshlar siyosatiga oid milliy normativ-huquqiy hujjatlar, xalqaro tashkilotlarning strategik hujjatlari, zamonaviy ilmiy adabiyotlar hamda xorijiy tajribalar qiyosiy jihatdan tahlil qilindi. Mazkur metodlar manfaatlar muvozanatini faqat nazariy emas, balki amaliy boshqaruv jarayoni sifatida ham baholash imkonini berdi.

Manfaatlar muvozanati tushunchasi zamonaviy siyosiy va ijtimoiy fanlarda ko'p qirrali kategoriyalardan biri hisoblanadi. U manfaatlarning oddiy tengligi yoki muayyan guruh manfaatlarining ustuvorligini emas, balki turli manfaatlarning o'zaro moslashuvi, kelishuvi va **qonuniy** uyg'unligini anglatadi. Shu ma'noda manfaatlar muvozanati

statik holat emas, balki ijtimoiy o'zgarishlar, demografik jarayonlar va texnologik rivojlanish ta'sirida doimiy ravishda yangilanib boruvchi dinamik jarayondir.

Bu borada yoshlar manfaatlarini e'tibordan chetda qoldirish avlodlararo adolat tamoyiliga putur yetkazadi, aksincha ularni siyosiy va ijtimoiy qarorlar qabul qilish jarayoniga jalb etish manfaatlar muvozanatini ta'minlashning muhim sharti hisoblanadi, deya ta'kidlaydi Marit Ursin va hammualliflari. [1; 11-b.] Ushbu yondashuv yoshlar manfaatlari muvozanatini faqat davlat tomonidan boshqariladigan jarayon emas, balki yoshlarning bevosita ishtirokiga asoslangan demokratik mexanizm sifatida talqin etish zarurligini ko'rsatadi. Shuningdek, Martha C. Nussbaum markaziy imkoniyatlar inson qadr-qimmatining mazmuniy poydevorini tashkil etishini ta'kidlaydi hamda inson farovonligini resurslar miqdori bilan emas, balki ulardan amalda foydalanish imkoniyati orqali baholash lozimligini asoslaydi. [2; 72-b.] Mazkur yondashuv yoshlar siyosatida manfaatlar muvozanatini ta'minlashda imkoniyatlar tengligi va amaliy natijadorlikni ustuvor mezon sifatida ko'rib chiqish zarurligini anglatadi.

Shunday qilib, manfaatlar muvozanati zamonaviy yoshlar siyosatining konseptual asoslaridan biri bo'lib, u yoshlarning turli manfaatlarini davlat va jamiyat taraqqiyoti maqsadlari bilan uyg'unlashtirishga xizmat qiladi. Aynan shu yondashuv keyingi bo'limlarda konseptual modelning tarkibiy elementlari, amal qilish tamoyillari va amaliy mexanizmlarini tahlil qilish uchun nazariy-metodologik asos vazifasini bajaradi.

Usullar

Zamonaviy ijtimoiy-siyosiy munosabatlarda yoshlarning manfaatlari doimiy ravishda o'zgarib borayotganligi sababli ularni muvozanatlashtirish ham statik emas, balki dinamik va refleksiv boshqaruv mexanizmlariga tayanishi zarur. Shu nuqtai nazardan ishlab chiqilgan konseptual model yoshlar manfaatlarini davlat siyosati, fuqarolik jamiyati institutlari va ijtimoiy taraqqiyot maqsadlari bilan uyg'unlashtirishga xizmat qiluvchi yaxlit tizim sifatida shakllantirildi.

Konseptual modelning metodologik asosini manfaatlar xilma-xilligini inkor etish emas, balki ularning legitim mavjudligini tan olish va o'zaro muvozanatlashtirish g'oyasi tashkil etadi. Mavzuni o'rganish davomida aniqlanishicha, yoshlar manfaatlari hududiy, ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy jihatdan sezilarli darajada differensiallashgan bo'lib, ularni yagona standart asosida boshqarish samarasiz hisoblanadi. Shu sababli ishlab chiqilgan model manfaatlarni dialog, institutsional hamkorlik va adolat tamoyillari asosida uyg'unlashtirishni nazarda tutadi.

Modelning birinchi tarkibiy qismi aksiologik asos hisoblanadi. Manfaatlar muvozanatini ta'minlash, avvalo, umumiy qadriyatlar tizimiga tayanishi lozim. Inson qadr-qimmati, ijtimoiy adolat, fuqarolik mas'uliyati, milliy o'zlikni anglash, umuminsoniy qadriyatlarga ochiqlik hamda avlodlar davomiyligi mazkur modelning asosiy aksiologik tayanchlarini tashkil etadi. Aynan ushbu qadriyatlar manfaatlar o'rtasidagi kelishuvning ma'naviy mezonini belgilaydi hamda modelning strategik yo'nalishini aniqlaydi. Qadriyatlar tizimi yetarli darajada shakllanmagan sharoitda huquqiy yoki tashkiliy mexanizmlar manfaatlar muvozanatini uzoq muddat ta'minlay olmaydi.

Modelning ikkinchi tarkibiy qismi normativ-huquqiy asosdan iborat. Yoshlar manfaatlari muvozanati samarali huquqiy kafolatlarsiz shakllanishi mumkin emas. Shu bois mazkur tarkibiy qism yoshlar siyosatini tartibga soluvchi qonunchilik, davlat strategiyalari va institutsional me'yorlarning o'zaro uyg'unligini nazarda tutadi. Huquqiy bazaning mavjudligi bilan bir qatorda uning amaliy ijrosi ham muvozanatlashtirish jarayonining muhim omili hisoblanadi. Bu borada huquqning matnda mavjudligi va amalda ishlashi o'rtasidagi tafovut institutsional transformatsiyaning eng jiddiy muammosidir, degan tadqiqotchi D. Ziyodullayev fikri yoshlar siyosati samaradorligini baholashda muhim metodologik mezon bo'lib xizmat qiladi. [3; 156-b.]

Konseptual modelning uchinchi tarkibiy elementi institutsional tarkibiy qism hisoblanadi. Mazkur tarkibiy qism yoshlar manfaatlarini aniqlash, ifodalash va davlat boshqaruvi tizimiga integratsiya qilishga xizmat qiluvchi institutlar faoliyatini qamrab oladi. Manfaatlar muvozanati alohida tashkilotlarning mavjudligi bilan emas, balki ularning o'zaro hamkorligi hamda yoshlar bilan samarali muloqot o'rnata olish darajasi bilan belgilanadi. Shu ma'noda, Judith Bessant yoshlarning siyosiy va ijtimoiy qarorlar qabul qilish jarayonlaridagi ishtiroki alohida institutlarning mavjudligi bilan emas, balki ushbu institutlarning yoshlar manfaatlarini amaliy qarorlarga integratsiya qilish salohiyati bilan belgilanadi, deb ta'kidlaydi. [3; 179-b.] Mazkur yondashuv institutsional tizimning samaradorligini sifat ko'rsatkichlari orqali baholash zarurligini ko'rsatadi.

To'rtinchi tarkibiy qism kommunikativ-deliberativ tarkibiy qism bo'lib, manfaatlar muvozanatini ochiq muloqot orqali shakllantirishga xizmat qiladi. Yoshlarning qarorlar qabul qilish jarayonlaridagi ishtiroki ularning manfaatlarini muvozanatlashtirishning eng muhim shartlaridan biri hisoblanadi. Ochiq muhokamalar, yoshlar forumlari, maslahat kengashlari va raqamli ishtirok platformalari manfaatlarning kelishuv asosida uyg'unlashishiga xizmat qiluvchi vositalar sifatida namoyon bo'ladi. Bu jarayonda dialog bir tomonlama axborot uzatish emas, balki davlat va yoshlar o'rtasidagi o'zaro ishonchni mustahkamlovchi demokratik mexanizm sifatida namoyon bo'ladi.

Modelning beshinchi elementi iqtisodiy-resurs tarkibiy qismi hisoblanadi. Manfaatlar muvozanati iqtisodiy imkoniyatlar bilan bevosita bog'liq bo'lib, ta'lim, bandlik, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash va moliyaviy resurslardan teng foydalanish imkoniyatlari yoshlar manfaatlarini ro'yobga chiqarishning asosiy omillaridan biridir. Shu bois resurslarning hududlar va ijtimoiy guruhlar o'rtasida adolatli taqsimlanishi modelning muhim tarkibiy qismi sifatida baholandi. Mazkur yondashuv davlat tomonidan yoshlar rivojlanishiga yo'naltirilayotgan investitsiyalarni strategik kapital sifatida ko'rib chiqish zarurligini ko'rsatadi.

Oltinchi tarkibiy qism madaniy-ma'rifiy asosni tashkil etadi. Manfaatlar muvozanatini faqat iqtisodiy yoki siyosiy omillar orqali izohlash yetarli emas. Shuningdek, yoshlarning ma'naviy dunyoqarashi, milliy o'zligini anglashi, madaniy qadriyatlarga munosabati va intellektual salohiyati ham manfaatlar uyg'unligini ta'minlovchi muhim omillardan biri hisoblanadi. Aynan madaniy-ma'rifiy muhit yoshlarning fuqarolik pozitsiyasi va ijtimoiy mas'uliyatini shakllantiradi hamda manfaatlarni jamiyat taraqqiyoti maqsadlari bilan uyg'unlashtirishga xizmat qiladi.

Yettinchi tarkibiy qism axborot-raqamli tarkibiy qism bo'lib, u zamonaviy raqamli jamiyat sharoitida alohida ahamiyat kasb etadi. Raqamli texnologiyalar yoshlarning axborot olish, fikr bildirish va davlat boshqaruvida ishtirok etish imkoniyatlarini kengaytirgan bo'lsa-da, dezinformatsiya, manipulyatsiya va axborot xavfsizligi bilan bog'liq yangi xatarlarni ham yuzaga keltirmoqda. Shu sababli konseptual model doirasida raqamli savodxonlik, tanqidiy fikrlash, shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish hamda raqamli ishtirok platformalarini rivojlantirish manfaatlar muvozanatini ta'minlashning muhim tarkibiy qismi sifatida baholandi. Bu borada Sonia Livingstone raqamli muhit yoshlar uchun nafaqat yangi imkoniyatlar maydoni, balki ularning fuqarolik ishtiroki va qarorlar qabul qilishdagi faolligini shakllantiruvchi murakkab ijtimoiy makondir, deb ta'kidlaydi. [5] Mazkur yondashuv raqamli transformatsiyani yoshlar siyosatining ajralmas tarkibiy elementi sifatida ko'rib chiqish zarurligini asoslaydi.

Yuqorida qayd etib o'tilgan **aksiologik**, normativ-huquqiy, institutsional, kommunikativ-deliberativ, iqtisodiy-resurs, madaniy-ma'rifiy hamda axborot-raqamli tarkibiy qismlar o'zaro uzviy bog'liq yagona tizimni tashkil etadi. Ulardan birortasining sust rivojlanishi modelning umumiy samaradorligini pasaytiradi. Aksincha, barcha tarkibiy qismlarning kompleks va muvofiqlashtirilgan faoliyati yoshlar manfaatlarini muvozanatlashtirishning institutsional asoslarini mustahkamlaydi hamda davlat siyosatining barqarorligini **ta'minlashga** xizmat qiladi.

Natijalar

Ishlab chiqilgan konseptual modelning samaradorligi nafaqat uning **tarkibiy qismlariga**, balki ushbu tarkibiy qismlarning qanday tamoyillar asosida faoliyat yuritishi va qanday amaliy mexanizmlar orqali amalga oshirilishiga ham bevosita bog'liqligini ko'rsatdi. Modelning tashkiliy tuzilmasi uning "anatomiyasi"ni ifodalasa, amal qilish tamoyillari va amaliy mexanizmlari uning funksional mazmunini belgilaydi. Shu sababli manfaatlar muvozanatini ta'minlash jarayonida adolat, inklyuzivlik, shaffoflik, subsidiarlik, dialog va refleksivlik tamoyillari yagona tizim sifatida namoyon bo'ladi. Mazkur tamoyillar manfaatlarini aniqlash, baholash va muvofiqlashtirish jarayonlarining metodologik asosini tashkil etadi.

Konseptual modelning birinchi tamoyili adolat tamoyili hisoblanadi. Manfaatlar muvozanatini ta'minlash barcha yoshlarni bir xil sharoitga qo'yishni emas, balki ularning real ehtiyojlari va imkoniyatlarini hisobga olgan holda teng imkoniyatlar yaratishni nazarda tutadi. Hududlar, ijtimoiy guruhlar, iqtisodiy sharoit va ta'lim olish imkoniyatlari o'rtasidagi tafovutlar yoshlar manfaatlarining shakllanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli adolat tamoyili resurslarni mexanik taqsimlash emas, balki ehtiyoj va imkoniyatlar asosida muvozanatli boshqarishni anglatadi. Aynan ushbu tamoyil yoshlar siyosatining ijtimoiy legitimligini ta'minlovchi asosiy mezonlardan biridir.

Ikkinchi tamoyil inklyuzivlik tamoyilidir. Manfaatlar muvozanati barcha yoshlarning qarorlar qabul qilish jarayonlarida teng ishtirokini ta'minlamasdan turib barqaror bo'lishi mumkin emas. Xususan, imkoniyati cheklangan yoshlar, ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlar, chekka hududlarda istiqomat qiluvchi yoshlar hamda boshqa ijtimoiy guruhlarining manfaatlarini siyosiy qarorlarga integratsiya qilish modelning muhim shartlaridan biri hisoblanadi. Bu borada Karen Soldatic va Karen Johnson **"Inklyuziv siyosatning asosiy mezoni turli ijtimoiy guruhlarining qarorlar qabul qilish jarayonida nafaqat ishtirok etishi, balki ushbu qarorlarning mazmuni va natijalariga real ta'sir ko'rsatish imkoniyatiga ega bo'lishidir"**, deb ta'kidlaydilar [6]. Mazkur yondashuv inklyuzivlikni faqat ishtirok bilan emas, balki real ta'sir darajasi bilan baholash zarurligini ko'rsatadi.

Modelning uchinchi tamoyili shaffoflik va hisobdorlik tamoyilidir. Manfaatlar muvozanatini ta'minlash jarayoni ochiq axborot almashinuvi, qarorlar qabul qilishning oshkoraligi hamda davlat organlarining jamoatchilik oldidagi javobgarligi bilan chambarchas bog'liq. Shaffof boshqaruv yoshlarning davlat institutlariga bo'lgan ishonchini oshiradi, manfaatlar to'qnashuvini kamaytiradi va siyosiy qarorlarning legitimligini mustahkamlaydi. Shu nuqtai nazardan ochiq ma'lumotlar, jamoatchilik muhokamalari va muntazam hisobot berish tizimi modelning ajralmas qismi sifatida baholandi.

To'rtinchi tamoyil subsidiarlik tamoyili bo'lib, u qarorlarning imkon qadar manfaatlariga eng yaqin darajada qabul qilinishini nazarda tutadi. Mahalliy boshqaruv organlari, mahalla institutlari va ta'lim muassasalari yoshlar manfaatlarini aniqlashda markazlashgan boshqaruvga nisbatan tezkorroq va aniqroq natija berishini ko'rsatdi. Shu sababli yoshlar siyosatining samaradorligi markaziy va mahalliy boshqaruv o'rtasidagi vakolatlarining oqilona taqsimlanishiga bog'liq. Subsidiarlik tamoyili manfaatlarini boshqarish jarayonida hududiy xususiyatlarni hisobga olish imkonini beradi hamda siyosatning amaliy natijadorligini oshiradi.

Beshinchi tamoyil dialog va kelishuv tamoyilidir. Manfaatlar muvozanati turli ijtimoiy guruhlar o'rtasidagi ochiq muloqot va o'zaro ishonch asosida shakllanishi aniqlandi. Manfaatlar qarama-qarshiligini ma'muriy bosim orqali emas, balki ilmiy asoslangan muhokama va kelishuv orqali hal etish zamonaviy demokratik boshqaruvning muhim talabi hisoblanadi. Bu borada Nicole Curato va hammualliflari **"Deliberativ boshqaruvning asosiy vazifasi turli manfaat va qarashlarga ega ishtirokchilar o'rtasida asoslantirilgan muloqotni tashkil etish hamda qarorlarning legitimligini inklyuziv muhokama orqali ta'minlashdan iborat"**, deb ta'kidlaydi [7]. Mazkur yondashuv yoshlar manfaatlarini muvozanatini dialogik boshqaruv tamoyillari bilan uzviy bog'laydi.

Oltinchi tamoyil refleksivlik tamoyili hisoblanadi. Yoshlar manfaatlarini va ularni belgilovchi omillar doimiy ravishda o'zgarib borayotganligi sababli manfaatlar muvozanatini ta'minlash modeli ham muntazam ravishda takomillashib borishi zarur. Siyosat natijalarini baholash, mavjud kamchiliklarni aniqlash va yangi sharoitlarga mos ravishda o'zgartirish refleksiv boshqaruvning asosiy mazmunini tashkil etadi. Shu jihatdan refleksivlik modelni statik tizim emas, balki o'rganadigan va yangilanadigan boshqaruv mexanizmi sifatida tavsiflaydi.

Konseptual modelning amaliy samaradorligi to'rtta asosiy mexanizm orqali ta'minlanishi asoslab berildi. Birinchi mexanizm manfaatlarini aniqlash mexanizmi bo'lib, u yoshlarning real ehtiyojlarini ilmiy usullar orqali aniqlashga xizmat qiladi. Sotsiologik so'rovlar, fokus-guruhlar, raqamli platformalar, jamoatchilik muhokamalari hamda yoshlar vakillik institutlari ushbu mexanizmning asosiy vositalari hisoblanadi. Manfaatlarini muvozanatlashtirishning dastlabki sharti

ularni to'g'ri va xolis aniqlashdir. Bu jarayonda faqat faol fikr bildirayotgan yoshlar emas, balki turli sabablarga ko'ra o'z manfaatlarini ochiq ifoda eta olmayotgan qatlamlarning ehtiyojlarini ham aniqlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Ikkinchi mexanizm manfaatlarini muvozanatlashtirish mexanizmidir. Aniqlangan manfaatlar ustuvorlik darajasi, mavjud resurslar va ijtimoiy ehtiyojlardan kelib chiqib baholanadi hamda o'zaro kelishuv asosida muvofiqlashtiriladi. Bu borada Deborah Stone **"Davlat siyosatida qarorlar turli qadriyatlar va manfaatlar o'rtasidagi muvozanatni topish jarayoni bo'lib, ular yagona universal mezon asosida emas, balki muayyan ijtimoiy vaziyat va manfaatdor tomonlarning o'zaro munosabatlarini hisobga olgan holda qabul qilinadi"**, deb ta'kidlaydi [8]. Mazkur yondashuv manfaatlarini muvozanatlashtirishning moslashuvchan va kontekstga sezgir boshqaruv mexanizmi ekanligini tasdiqlaydi.

Uchinchi mexanizm konfliktlarni boshqarish mexanizmi hisoblanadi. Yoshlar manfaatlarining turli xil bo'lishi ayrim hollarda manfaatlar to'qnashuviga olib kelishi tabiiy. Bunday vaziyatlarda ziddiyatlarni erta aniqlash, ularning sabablarini tahlil qilish, vositachilik asosida muloqotni tashkil etish hamda kelishuvga erishish modelning barqarorligini ta'minlaydi. Konfliktlarni boshqarish mexanizmi yoshlar, davlat va fuqarolik jamiyati institutlari o'rtasidagi ishonchni saqlash hamda manfaatlar muvozanatini izchil davom ettirish imkonini beradi.

To'rtinchi mexanizm monitoring va baholash mexanizmidir. Modelning natijadorligini baholash uchun muntazam monitoring tizimining zarurligi asoslandi. Yoshlarning davlat institutlariga ishonchi, siyosiy ishtiroki, manfaatlar qondirilish darajasi, bandlik, ta'lim va fuqarolik faolligi kabi ko'rsatkichlar model samaradorligini baholash mezonlari sifatida belgilandi. Monitoring natijalari konseptual modelni takomillashtirish, yangi ehtiyojlarni aniqlash va siyosatni qayta moslashtirish imkonini beradi. Shu jihatdan monitoring refleksiv boshqaruvning amaliy ifodasi sifatida namoyon bo'ladi.

Shunday qilib, konseptual modelning muvaffaqiyatli faoliyati uning tarkibiy qismlari bilan bir qatorda amal qilish tamoyillari va amaliy mexanizmlarining uzviy uyg'unligiga bog'liqligini ko'rsatdi. Adolat, inklyuzivlik, shaffoflik, subsidiarlik, dialog va refleksivlik tamoyillari manfaatlarini aniqlash, muvozanatlashtirish, konfliktlarni boshqarish hamda monitoring mexanizmlari bilan uyg'unlashgan holda yoshlar siyosatida manfaatlar muvozanatini ta'minlashning yaxlit boshqaruv modelini shakllantiradi.

Muhokama

Yoshlar siyosatida manfaatlar muvozanatini ta'minlashga qaratilgan konseptual modelni amaliyotga joriy etish Yangi O'zbekiston sharoitida olib borilayotgan islohotlarning mantiqiy davomi hisoblanadi. Mamlakatda yoshlarni qo'llab-quvvatlash, ularning huquq va manfaatlarini himoya qilish, bandligini ta'minlash hamda davlat boshqaruvida ishtirokini kengaytirish bo'yicha muhim institutsional va huquqiy asoslar yaratilgan. Shu bilan birga, mavjud imkoniyatlardan yanada samarali foydalanish uchun manfaatlar muvozanatini ta'minlovchi tizimli va refleksiv boshqaruv modelini amaliyotga joriy etish zarurligini ko'rsatmoqda. Mazkur model davlat organlari, fuqarolik jamiyati institutlari va yoshlarning o'zaro hamkorligini yangi bosqichga olib chiqishga xizmat qilishi mumkin.

Birinchi navbatda, modelni davlat siyosati darajasida joriy etish yoshlar manfaatlarini shakllantirish va muvofiqlashtirishning yagona institutsional mexanizmini yaratishni talab etadi. Yoshlar siyosatiga oid qarorlar ishlab chiqishda manfaatdor tomonlarning muntazam ishtirokini ta'minlash, ehtiyojlarni ilmiy asosda o'rganish hamda natijalarni doimiy baholab borish davlat siyosati samaradorligini sezilarli oshiradi. Shu sababli manfaatlar muvozanatini baholovchi indikatorlar tizimini joriy etish, strategik rejalashtirishni monitoring natijalari bilan uyg'unlashtirish hamda yoshlar siyosatining samaradorligini muntazam tahlil qilib borish maqsadga muvofiqdir.

Modelni amalga oshirishda mahalliy boshqaruv organlari alohida o'rin tutadi. Yoshlar manfaatlari, avvalo, mahalla, tuman va shahar darajasida shakllanishini ko'rsatdi. Shu sababli subsidiarlik tamoyili asosida mahalliy boshqaruv organlarining vakolatlarini kuchaytirish, hududiy ehtiyojlarni muntazam o'rganish va yoshlarning bevosita ishtirokiga asoslangan maslahat mexanizmlarini rivojlantirish zarur. Mahallalarda faoliyat yurituvchi yoshlar maslahat kengashlari, hududiy tahliliy platformalar hamda jamoatchilik muhokamalari mahalliy manfaatlarini davlat siyosati bilan uyg'unlashtirishning muhim vositasi bo'lib xizmat qiladi.

Ta'lim tizimi manfaatlar muvozanatini ta'minlashning eng muhim ijtimoiy institutlaridan biri ekanligini ham tasdiqladi. Zamonaviy ta'lim faqat kasbiy bilim berish bilan cheklanmasdan, yoshlarda fuqarolik mas'uliyati, tanqidiy fikrlash, siyosiy madaniyat va ijtimoiy hamkorlik ko'nikmalarini rivojlantirishi lozim. Shu nuqtai nazardan fuqarolik ta'limi, deliberativ muloqot, loyiha faoliyati va ijtimoiy tashabbuslarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan ta'lim texnologiyalarini keng joriy etish konseptual modelning muhim amaliy yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Demokratiya faqat institutlar orqali emas, balki ta'lim orqali shakllanadigan fuqarolik madaniyatiga ham tayanadi, deb ta'kidlaydi Amy Gutmann [9; 109-b.]. Mazkur yondashuv yoshlar manfaatlari muvozanatini ta'minlashda ta'limning strategik rolini tasdiqlaydi.

Konseptual modelning muhim yo'nalishlaridan yana biri iqtisodiy rivojlanish bilan bog'liq. Iqtisodiy mustaqillik yoshlarning manfaatlarini ro'yobga chiqarishning asosiy omillaridan biri ekanligini ko'rsatdi. Bandlik, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash, innovatsion faoliyat uchun qulay muhit yaratish hamda iqtisodiy resurslardan teng foydalanish imkoniyatlari yoshlarning jamiyatdagi faolligini oshiradi. Shu bois startup loyihalari, yosh tadbirkorlar uchun moliyaviy instrumentlar, kasbiy tayyorgarlik va mehnat bozoriga moslashuv dasturlarini rivojlantirish modelning iqtisodiy samaradorligini oshiradi. Bu borada innovatsion tadbirkorlik nafaqat yangi iqtisodiy qiymat yaratadi, balki inson kapitalini rivojlantirish va uzoq muddatli iqtisodiy o'sishning muhim omili hisoblanadi, deb qayd etadi David B. Audretsch [10]. Mazkur yondashuv yoshlar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlashni strategik investitsiya sifatida baholash zarurligini ko'rsatadi.

Modelni amalga oshirishda fuqarolik jamiyati institutlarining o'rni ham alohida ahamiyat kasb etadi. Manfaatlar muvozanatini faqat davlat organlari faoliyati orqali ta'minlash mumkin emasligi ko'rsatildi. Nodavlat notijorat

tashkilotlari, yoshlar birlashmalari, volontyorlik harakati va mustaqil ekspert hamjamiyatlari davlat hamda yoshlar o'rtasidagi samarali muloqotni kuchaytiruvchi vositachilar sifatida faoliyat yuritishi zarur. Bu borada fuqarolik jamiyati institutlarining samaradorligi davlat va fuqarolar o'rtasidagi o'zaro ishonch darajasiga bog'liq, degan Eric M. Uslaner fikri mazkur fikrlar bilan uyg'unlashadi [11; 97-b.]. Davlat va fuqarolik jamiyati o'rtasidagi ochiq hamkorlik manfaatlar muvozanatini ta'minlashning muhim institutsional omili hisoblanadi.

Zamonaviy sharoitda raqamli transformatsiya konseptual modelning ajralmas tarkibiy qismi sifatida namoyon bo'lmoqda. Raqamli texnologiyalar yoshlarning davlat boshqaruvida ishtirok etish imkoniyatlarini kengaytirayotganini ko'rsatdi. Shu bilan birga, axborot manipulyatsiyasi, dezinformatsiya va kiberxavfsizlik bilan bog'liq xavflar ham ortib bormoqda. Shu sababli raqamli savodxonlikni rivojlantirish, ochiq davlat ma'lumotlari tizimini kengaytirish, yoshlar uchun elektron maslahat va muhokama platformalarini takomillashtirish hamda sun'iy intellekt asosidagi tahliliy vositalardan foydalanish istiqbolli yo'nalishlar sifatida baholanadi.

Muhokama jarayonida konseptual modelning asosiy afzalliklari ham aniqlandi. Birinchidan, model manfaatlar muvozanatini alohida yo'nalish sifatida emas, balki yoshlar siyosatining barcha tarkibiy qismlarini birlashtiruvchi kompleks tizim sifatida talqin qiladi. Ikkinchidan, model refleksiv boshqaruv tamoyiliga asoslanganligi sababli yangi ijtimoiy sharoitlarga moslashish imkoniyatiga ega. Uchinchidan, manfaatlarni aniqlash, muvozanatlashtirish, konfliktlarni boshqarish va monitoring mexanizmlarining yagona tizimga birlashtirilishi modelning amaliy qo'llanish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Shu bilan birga, modelning ayrim cheklavlari ham mavjud. Institutsional inertsia, moliyaviy resurslarning cheklanganligi, hududlar o'rtasidagi rivojlanish tafovutlari hamda globallashtirish jarayonlarining tezkor o'zgarishi modelni joriy etishda muayyan qiyinchiliklarni yuzaga keltirishi mumkin. Bundan tashqari, manfaatlarni baholashda sifat ko'rsatkichlarining ustunligi ularni muntazam sotsiologik tadqiqotlar orqali aniqlash zaruratini keltirib chiqaradi. Shu bois konseptual modelni amaliyotga tatbiq etishda monitoring va mustaqil ekspert baholash tizimlarini doimiy takomillashtirib borish talab etiladi.

Yakuniy ilmiy xulosa sifatida ta'kidlash mumkinki, yoshlar siyosatida manfaatlar muvozanatini ta'minlash bir martalik tashkiliy chora emas, balki uzluksiz takomillashib boradigan kompleks boshqaruv jarayonidir. Ishlab chiqilgan konseptual model manfaatlar xilma-xilligini tan olgan holda ularni adolat, inklyuzivlik, ochiqlik va dialog tamoyillari asosida uyg'unlashtirish imkonini beradi. Mazkur modelni Yangi O'zbekiston sharoitida bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etish davlat boshqaruvi samaradorligini oshirish, fuqarolik jamiyati institutlarini rivojlantirish hamda yoshlarning siyosiy va ijtimoiy faolligini kuchaytirishga xizmat qiladi. Shu bois yoshlar manfaatlari muvozanatini ta'minlashni davlat siyosatining alohida vazifasi sifatida emas, balki mamlakatning uzoq muddatli barqaror taraqqiyotini ta'minlovchi strategik rivojlanish konsepsiyasining muhim tarkibiy qismi sifatida baholash maqsadga muvofiqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ursin M., Lorgen L. C., Ortega Alvarado I. A., Smalsundmo A.-L., Nordgård R. C., Bern M. R., Bjørnevik K. Promoting Intergenerational Justice Through Participatory Practices: Climate Workshops as an Arena for Young People's Political Participation // *Frontiers in Psychology*. – 2021. – Vol. 12. – Article 727227.
2. Nussbaum M. C. *Creating Capabilities: The Human Development Approach*. – Cambridge, MA: Harvard University Press, 2011.
3. Ziyodullayev D. *Davlat va jamiyat modernizatsiyasi jarayonida siyosiy institutlar transformatsiyasi*. – Toshkent: Fan, 2018. – B. 156.
4. Bessant J. *Making-Up People: Youth, Truth and Politics*. – London: Routledge, 2021.
5. Livingstone S. *Children and Young People's Digital Rights*. – London: London School of Economics and Political Science, 2022.
6. Soldatic K., Johnson K. *Disability, Human Rights and Inclusive Policy*. – London: Routledge, 2020.
7. Curato N., Dryzek J. S., Ercan S. A., Hendriks C. M., Niemeyer S. *Deliberative Democracy for Crisis Times*. – Cambridge: Cambridge University Press, 2021.
8. Stone D. *Policy Paradox: The Art of Political Decision Making*. 4th ed. – New York: W. W. Norton & Company, 2022.
9. Gutmann A. *Democratic Education*. Rev. ed. – Princeton, NJ: Princeton University Press, 1999.
10. Audretsch D. B., Belitski M., Caiazza R. Entrepreneurship, Innovation and Economic Development // *Small Business Economics*. – 2023.
11. Uslaner E. M. Social Capital and the Reproduction of Trust // *The Oxford Handbook of Social Capital*. 2nd ed. – Oxford: Oxford University Press, 2023.